

«GRAND STAR FAYZ SD» MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
«SAFIR» MEHMONXONASI

Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Moturudiy ko'chasi, 30V/2

«TASDIQLAYMAN»
«Grand Star Fayz SD» MCHJ direktori
M.B. Qurbonov
09» yanvar 2026-yil
M.O'.

OZIQ-OVQAT CHIQINDILARI HOSIL BO'LISHI DARAJASINI
NAZORAT QILISH VA KAMAYTIRISH BO'YICHA 2026-YIL
TADBIRLARI REJASI HAMDA ULARNING AMALGA
OSHIRILGANLIGIGA OID HUJJATLAR

1. Rejaning asosi va maqsadi

Reja O'zMSt 480:2025 milliy standartining 4.5.2-bandi hamda GSTC tarmoq mezonlarining D2.4-bandi talablariga muvofiq, 2025-yil o'lchash natijalari va manbalar tahlili (SF-OT-20) asosida ishlab chiqilgan.

2025-yil bazaviy ko'rsatkichlari: jami 3 718 kg oziq-ovqat chiqindisi, bir mehmon-kechaga 267 gramm. Manbalar bo'yicha: bufet qoldiqlari 42,2 %, tayyorlash chiqindilari 34,4 %, likopcha qoldiqlari 18,3 %, saqlash chiqindilari 5,0 %.

2026-yil uchun maqsad: bir mehmon-kechaga to'g'ri keladigan oziq-ovqat chiqindisi ko'rsatkichini 240 grammdan oshirmaslik (2025-yilga nisbatan kamida 10 % kamaytirish) va T4 (saqlash) toifasini 75 kg dan oshirmaslik.

2. Mas'uliyat va nazorat

Oziq-ovqat chiqindilarini boshqarish uchun mas'ul shaxs 05.01.2026-yildagi № 03-U buyruq bilan belgilangan (O'zMSt 480:2025, Ilova, 4.5.2-band talabi). Kunlik o'lchash — navbatchi oshpaz; oylik jamlash va tahlil — restoran menejeri; umumiy nazorat — direktor. Natijalar har chorakda rahbariyat tahlili yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

3. 2026-yil tadbirlari rejasi va bajarilish holati

№	Tadbir	Kutilayotgan natija	Muddat	Mas'ul	Bajarilish holati (15.08.2026-yilga)
1	Nonushta buffetida kichik hajmli idishlardan foydalanish va mehmonlar oqimiga qarab bosqichma-bosqich to'ldirishni barcha issiq va sovuq taomlarga tatbiq etish	T2 toifasini 15 % kamaytirish	01.03.2026	Restoran menejeri M. Qurbonov	Bajarildi. Idishlar 2026-yil fevralda almashtirildi; nonushta texnologik kartasiga to'ldirish tartibi kiritildi
2	Omborda FIFO tamoyili va yaroqlilik muddati nazoratini kuchaytirish, haftalik tekshiruv joriy etish	T4 toifasini 60 % kamaytirish	01.03.2026	Restoran menejeri	Bajarildi. Haftalik tekshiruv qaydnomasi yuritilmoqda; mahsulotlarga qabul sanasi yozilgan yorliq yopishtirilmoqda

№	Tadbir	Kutilayotgan natija	Muddat	Mas'ul	Bajarilish holati (15.08.2026-yilga)
3	Bandlik prognozi asosida kunlik taom miqdorini rejalashtirish tartibini joriy etish	Umumiy hajmni 8 % kamaytirish	01.05.2026	Restoran menejeri	Bajarildi. Har kuni kechqurun ertangi bandlik ma'lumoti oshxonaga uzatiladi
4	Porsiya o'Ichamlarini qayta ko'rib chiqish va mehmonga porsiya tanlash imkonini berish	T3 toifasini 10 % kamaytirish	01.06.2026	Restoran menejeri	Bajarildi. Menyuda ayrim taomlar bo'yicha ikki xil porsiya joriy etildi
5	Oshxona xodimlari uchun mahsulotdan to'liq foydalanish va FIFO bo'yicha amaliy mashg'ulot	T1 toifasini 5 % kamaytirish	30.04.2026	Restoran menejeri	Bajarildi. 27.04.2026 va 11.05.2026-yillarda treninglar o'tkazildi (SF-OD-13, 8 va 9-treninglar)
6	Organik chiqindilarni ajratib olishni yaxshilash va hayvonlar uchun ozuqaga topshirish ulushini oshirish	Topshirish ulushini 90 % ga yetkazish	yil davomida	Bosh muhandis D. Qurbonov	Bajarilmoqda. I yarim yillikda ulush 85 % ni tashkil etdi
7	Mehmonlar uchun oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirishga oid uch tilli ma'lumot kartalarini nonushta zonasiga joylashtirish	Mehmonlarni jalb etish (4.5.2 B)	01.04.2026	Restoran menejeri	Bajarildi. Kartalar buffet zonasiga o'rnatildi
8	Kunlik o'lchash ma'lumotlarini oylik jamlash va tahlil qilish, natijalarni rahbariyatga taqdim etish	Uzluksiz monitoring	har oy	Restoran menejeri	Bajarilmoqda. F-19/2 oylik jamlanmalari yuritilmoqda
9	Muddati yaqinlashgan mahsulotlardan xodimlar ovqatlanishida ustuvor foydalanish tartibini joriy etish	T4 toifasini qo'shimcha kamaytirish	01.07.2026	Restoran menejeri	Bajarildi
10	Yil yakunida natijalarni tahlil qilish va 2027-yil maqsadlarini belgilash	Uzluksiz yaxshilanish	31.12.2026	Direktor M.B. Qurbonov	Rejalashtirilgan

4. Rejaning bajarilishini tasdiqlovchi hujjatlar va yozuvlar

- F-19/1 — kunlik o'lchash qaydnomalari (2026-yil bo'yicha uzluksiz yuritilmoqda);
- F-19/2 — oylik jamlanmalar va tahlil xulosalari;
- nonushta texnologik kartasi va buffetni to'ldirish tartibi;
- ombor haftalik tekshiruvi qaydnomasi (yaroqlilik muddati nazorati);
- kunlik bandlik prognozi asosida taom miqdorini rejalashtirish qaydlari;
- 27.04.2026 va 11.05.2026-yillardagi treninglarning imzo varaqalari (F-13/2);
- organik chiqindilarni topshirish dalolatnomalari (F-17/1) va birlamchi hisob jurnali (F-18/1);

– nonushta zonasidagi mehmonlar uchun ma'lumot kartalari (uch tilda).

5. 2026-yil I yarim yilligi natijalari

Oy	Mehmon-kecha	Oziq-ovqat chiqindilari, kg	Bir mehmon-kechaga, g
Yanvar	880	236	268
Fevral	910	238	262
Mart	1 250	315	252
Aprel	1 480	361	244
May	1 520	365	240
Iyun	1 410	336	238
JAMI (I yarim yillik)	7 450	1 851	248

2026-yil I yarim yilligida solishtirma ko'rsatkich 248 grammni tashkil etdi — bu 2025-yilning shu davridagi 269 grammga nisbatan 7,8 % kam. Iyun oyida ko'rsatkich 238 grammga tushib, yillik maqsadli darajadan (240 g) past bo'ldi. T4 toifasi I yarim yillikda 34 kg ni tashkil etdi (2025-yilning shu davrida — 93 kg), ya'ni 63 % ga kamaydi va rejadagi maqsadga erishildi.

6. Xulosa va keyingi qadamlar

Reja belgilangan muddatlarda amalga oshirilmoqda: 10 ta tadbirdan 7 tasi to'liq bajarildi, 2 tasi uzluksiz rejimda bajarilmoqda, 1 tasi yil oxiriga rejalashtirilgan. Oraliq natijalar maqsadga erishilayotganini ko'rsatadi.

Yil yakunida o'lchash natijalari umumlashtiriladi, manbalar tahlili yangilanadi va 2027-yil uchun yangi maqsad hamda tadbirlar rejasi tasdiqlanadi. Natijalar tabiatni muhofaza qilish tadbirlari rejasiga (SF-TM-07) va rahbariyat tahliliga kiritiladi.

Tuzdi: restoran menejeri



M. Qurbonov

Tasdiqladi: direktor



M.B. Qurbonov

Hujjat kodi: SF-RJ-21. Tasdiqlangan sana: 09.01.2026. Bajarilish holati 15.08.2026-yilga yangilangan.

